



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No7
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 84 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METHODS USED IN BUSINESS DECISION-MAKING	10
Ochildiev Bekhruz To'liqin o'g'li, Safarov Alisher	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING AMALIY TAHLILI O'ZBEKISTON MIQYOSIDA VA UNING XUFYONA JIHATI	15
Yuldasheva Nargiza Rashidovna, Koshanov Abdimurat Azat uli	
BIZNESDA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA KASBIY KOMMUNIKATSIYALAR	20
Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Normamatova Sitora Nozim qizi, Umida Yuldasheva Anasaliyevna	
ИНТЕГРАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЙ МОДЕЛИРОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИЕ ПО БУХГАЛТЕРСКОМУ УЧЁТУ: ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	25
Муратова Наргиза Тахировна	
MIGRATSIYA JARAYONLARI VA IQTISODIY TENGSIZLIK O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR XUSUSIYATLARI	30
E.T. Samadova, M.Sh.Raximova	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA MENEJMENTNING YANGI YONDASHUVLARI	36
Shoydulova Maftuna Zafar qizi, Meliyeva Nargiza Eshboyevna	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR	43
Nosirov Sabohiddin, Abdullayeva Mohiniso, Hafizullayev Javlon, Kasimova Zilola G'ulomiddinovna	
MEHNAT MIGRATSIYASI VA PUL O'TKAZMALARINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI	48
Chintemirova Diyora Shuxrat qizi, Akbarova Barno Shuxratovna	
TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLAR VA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARINING O'RNI	53
Mirkomilov Nozimjon Oybek o'g'li, Tillayev Xurshid Sulaymon o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL MOLIYALASHTIRISHNI JORIY QILISH ORQALI IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	59
Inatullayeva Intizor Jamshid qizi, Uchqun Yunusovich O'roqov	
CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	64
G'ayratova Zilola G'anijon qizi, Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
INSON KAPITALI SIFATINI YAXSHILASH ORQALI MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	68
Ismoilova Intizor, To'ychiboyeva Adiba, Xabibullayeva Mohinur, Berdiqulova Sevinch	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING DAVLAT IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI	73
To'xtaraliyev To'lagan Nurlanbek o'g'li, Ibragimov Ulmas Raxmanovich	
TADBIRKORLIK FAOLIYATINING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI	76
Ergasheva Komila To'ra qizi	
XALQARO IQTISODIY KO'RSATKICHLAR STATISTIKASIDAGI MUAMMOLAR	79
Ro'ziqulov Abduqahhor Ixtiyor o'g'li, Babanazarova Sevara Abdinazarovna	



XALQARO IQTISODIY KO'RSATKICHLAR STATISTIKASIDAGI MUAMMOLAR



Ro'ziqulov Abduqahhor Ixtiyor o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

ORCID: 0009-0006-2750-1384

E-mail: abquqahhorruziqulov@gmail.com



Ilmiy rahbar:

Babanazarova Sevara Abdinazarovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti, PhD

E-mail: Babanazarova_sevara@mail.ru

ORCID: 0009-0006-2750-1384

Annotatsiya: Maqolada xalqaro iqtisodiy ko'rsatkichlar statistikasi shakllanishidagi muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Xalqaro statistikada metodologik tafovutlar, ma'lumotlarning yetishmasligi, shaffoflik darajasining pastligi hamda norasmiy iqtisodiyotning kengligi kabi dolzarb muammolar mavjudligi aniqlangan. O'zbekiston misolida milliy statistika tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, ochiqlikni oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali xalqaro reytinglarni yaxshilash jarayoni yoritilgan. Tadqiqot natijalari xalqaro statistikani takomillashtirish, ma'lumotlarning aniqligi va ishonchligini oshirish hamda global iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: globallashtirish, xalqaro iqtisodiy ko'rsatkichlar, statistika, metodologiya, shaffoflik, norasmiy iqtisodiyot, raqamlashtirish, barqaror rivojlanish.

Abstract: The article analyzes the problems in the formation of statistics on international economic indicators and develops proposals for their elimination. It is shown that there are urgent problems in international statistics, such as methodological differences, lack of data, transparency and the informal economy. The process of adapting the national statistical system to international standards, increasing openness and improving the rating by introducing innovative technologies is highlighted on the example of Uzbekistan. The results of the study will serve to improve international statistics, increase the accuracy and reliability of data, and provide a deeper analysis of global economic processes.

Key words: Globalization, international economic indicators, statistics, methodology, transparency, informal economy, digitalization, sustainable development.

Аннотация: В статье анализируются проблемы формирования статистики международных экономических показателей и разрабатываются предложения по их устранению. Было показано, что в международной статистике существуют такие актуальные проблемы, как методологические расхождения, нехватка данных, прозрачность и неформальная экономика. На примере Узбекистана был освещен процесс улучшения рейтинга за счет адаптации национальной статистической системы к международным стандартам, повышения прозрачности и внедрения инновационных технологий. Результаты исследования служат совершенствованию международной статистики, повышению точности и достоверности данных, а также более глубокому анализу глобальных экономических процессов.

Ключевые слова: Глобализация, международные экономические показатели, статистика, методология, прозрачность, неформальная экономика, цифровизация, устойчивое развитие.



KIRISH

Bugungi globallashuv davrida iqtisodiyot tobora murakkablashib, mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchayib bormoqda. Shunday sharoitda xalqaro iqtisodiy ko'rsatkichlarning ahamiyati yanada ortmoqda. Ushbu ko'rsatkichlar yordamida davlatlarning iqtisodiy qudrati baholanadi, mamlakatlar rivojlanish darajasi taqqoslanadi hamda xalqaro miqyosda iqtisodiy siyosat va qarorlar shakllantiriladi. Ayniqsa, xalqaro savdo, investitsiyalar, tashqi qarz, inflyatsiya va ishsizlik kabi omillar jahon xo'jaligi jarayonlarini tahlil etishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Biroq xalqaro statistikasi shakllantirishda qator muammolar mavjud. Avvalo, turli mamlakatlar o'z iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblashda har xil metodologiyalardan foydalanadi, bu esa natijalarni o'zaro taqqoslashni qiyinlashtiradi. Masalan, ishsizlik yoki qashshoqlik darajasining talqini mamlakatlar kesimida sezilarli farq qiladi. Ikkinchi tomondan, ayrim davlatlarda statistik ma'lumotlar yetarli darajada to'planmaydi yoki siyosiy hamda iqtisodiy manfaatlardan kelib chiqib to'liq aks ettirilmaydi. Natijada xalqaro miqyosda iqtisodiy jarayonlarni haqqoniy tahlil qilish imkoniyati cheklanadi.

Shuningdek, tashqi omillar ham statistik ko'rsatkichlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, pandemiya, global iqtisodiy inqirozlar yoki geosiyosiy ziddiyatlar tufayli ko'plab mamlakatlarda iqtisodiy natijalar keskin o'zgarib ketdi. Valyuta kurslarining tebranishi, norasmiy iqtisodiyotning keng qamrovi hamda yirik transmilliy kompaniyalar faoliyatini to'liq hisobga olishdagi qiyinchiliklar xalqaro statistikadagi eng dolzarb muammolardan biridir.

Mazkur maqolaning maqsadi — xalqaro iqtisodiy ko'rsatkichlar statistikasi shakllanishida uchraydigan muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iboratdir. Quyidagi takliflar shu yo'nalishda ko'rib chiqilishi mumkin:

1. Xalqaro iqtisodiy ko'rsatkichlarning nazariy va amaliy ahamiyatini yoritish.
2. Xalqaro statistik tizimdagi metodologik va amaliy muammolarni aniqlash.
3. Turli xalqaro tashkilotlarning yondashuvlarini tahlil va taqqoslash.
4. Aniqlangan muammolarni bartaraf etishning samarali yo'llarini ishlab chiqish.

Maqolaning obyekti — xalqaro iqtisodiy ko'rsatkichlar statistikasi, predmeti esa ularning shakllanishi, hisoblash metodlari va amaliyotda mavjud muammolardan iborat.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, xalqaro iqtisodiy ko'rsatkichsiz global iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish, mamlakatlarning rivojlanish darajasini baholash hamda strategik qarorlarni qabul qilish imkonsizdir. Shu sababli xalqaro statistikasi takomillashtirish va mavjud muammolarni bartaraf etish masalasi bugungi kunda nafaqat alohida davlatlar, balki butun jahon hamjamiyati uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'rganish global tadqiqotlarning muhim yo'nalishi hisoblanadi, chunki bu ko'rsatkichlar mamlakatlar miqyosida o'sish, barqarorlik va rivojlanishni baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Jahon banki yalpi ichki mahsulot (YalM), qashshoqlik, savdo va tengsizlik bo'yicha keng qamrovli global ma'lumotlar to'plamini shakllantiradi, bu esa turli iqtisodiyotlarning ko'rsatkichlarini solishtirish imkonini beradi. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ) esa to'lov balansi, valyuta kurslari va tashqi qarz darajalari kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha batafsil statistik ma'lumotlarni taqdim etadi. Ushbu ma'lumotlar to'plamlari moliyaviy barqarorlikni ta'minlash amaliyoti uchun muhim bo'lishiga qaramay, ayrim hollarda uslubiy tafvutlar tufayli qarama-qarshiliklarga olib keladi¹.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasi (UNCTAD) jahon savdosi va investitsiyalari bo'yicha keng qamrovli statistik ma'lumotlarni e'lon qiladi. Uning hisobotlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimidagi o'zgarishlar, transmilliy korporatsiyalarning roli hamda global qiymat zanjirlarining kengayishi alohida ta'kidlanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ham, ayniqsa, unumdorlik, innovatsiyalar va daromadlarni taqsimlash sohalarida katta hissa qo'shgan, biroq uning ma'lumotlari asosan ilg'or iqtisodiyotlarga yo'naltirilgani sababli global taqqoslashni qiyinlashtiradi².

Tadqiqotchilar xalqaro statistika va nazariya o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rnatish ustida izlanishlar olib bormoqdalar. Masalan, xalqaro savdo modellari natijalarida yig'ma o'lchovlar ba'zan mamlakatlar ichidagi tengsizlikni yashirishi mumkin, uzoq muddatli iqtisodiy qayta qurish jarayonlari esa rivojlanayotgan hududlar uchun izchil vaqt qatorlarini shakllantirishni murakkablashtiradi. Bu muammo, ayniqsa, tarixiy davrlar kesimida YalMni solishtirganda yaqqol seziladi, chunki ma'lumotlardagi bo'shliqlar va uslubiy tafvutlar tahlil natijalarini buzishi mumkin³.

1 World Bank. 2023 . World Development Indicators. Washington, DC.

2 OECD. 2021 . OECD Statistics Database. Paris: OECD Publishing.

3 Maddison, A. 2003 . The World Economy: Historical Statistics. OECD.



O'zbekiston va boshqa rivojlanayotgan iqtisodiyotlar misolida milliy statistika idoralari o'z hisobot tizimlarini Milliy hisoblar tizimi (SNA) kabi xalqaro standartlarga moslashtirish yo'lida izchil ishlar olib bormoqda. Biroq norasmiy iqtisodiyotni o'lchash va xalqaro miqyosda taqqoslanadigan ko'rsatkichlarni shakllantirishda hanz qiyinchiliklar mavjud.

Xalqaro iqtisodiy ko'rsatkichlarni statistik tahlil qilishda korrelyatsiya ellipsi muhim vosita sifatida qo'llaniladi. Ushbu egri chiziq ikki yoki undan ortiq o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni vizual tarzda ifodalaydi. Masalan, mamlakatlarda xorijiy investitsiyalar hajmi bilan YaIM o'sish sur'ati o'rtasidagi munosabatni tahlil qilganda, ellips shaklining cho'zilganligi ularning o'zaro bog'liqligi darajasini bildiradi. Agar ellips yuqoriga cho'zilgan bo'lsa — ijobiy bog'liqlik, pastga cho'zilgan bo'lsa — salbiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Shu tariqa, korrelyatsiya ellipsi xalqaro iqtisodiy jarayonlarning murakkab munosabatlarini soddalashtirilgan grafik ko'rinishda tahlil qilish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda xalqaro iqtisodiy ko'rsatkichlar, xususan Jahon bankining "Statistika faoliyati samaradorligi indeksi" ma'lumotlari asos sifatida olindi. Metodologiyada taqqoslash va dinamik tahlil usullari qo'llanilib, O'zbekistonning reytingdagi o'rni boshqa davlatlar bilan solishtirildi. Shuningdek, grafik va jadval shaklidagi statistik materiallar tahlilni yanada aniqroq hamda tushunarliroq qilish uchun qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi milliy statistika tizimlari samaradorligini baholashni xalqaro miqyosda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar va ochiq ma'lumotlar siyosati sharoitida har bir davlatning statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish, tahlil qilish va jamoatchilikka yetkazish salohiyati uning iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylandi (1-jadval).

1-jadval. Jahon bankining "Statistika faoliyati samaradorligi indeksi"da O'zbekiston

Mamlakat	O'rin	Ball
Daniya	1	95.3
Finlandiya	2	95.1
Polsha	3	94.7
Shvetsiya	4	94.4
Ispaniya	5	94.3
...	...	...
Moldova	44	86.1
Armaniston	48	85.0
Rossiya Federatsiyasi	52	82.9
O'zbekiston	62	80.3
Qozog'iston	65	79.8
Qirg'iziston Respublikasi	74	76.8
Tojikiston	163	48.6
Turkmaniston	186	30.7

Manba: "Ushbu ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika bosh boshqarmasining rasmiy sayti asosida tuzilgan."⁴

Jahon banki mamlakatlarning statistik salohiyatini tahlil qilish va baholash maqsadida yangilangan uslubiyot asosida ishlab chiqqan "Statistika faoliyati samaradorligi indeksi" (Statistical Performance Indicators)ning 2023-yilgi natijalarini keng jamoatchilik e'tiboriga taqdim etdi.

O'zbekiston ushbu xalqaro reytingda 80,3 ball natija bilan dunyoning 217 ta mamlakati orasida 62-o'rinni egalladi. Shu bilan birga, indeksda barcha MDH mamlakatlari ishtirok etgan bo'lib, 2023-yil yakunlariga ko'ra O'zbekiston MDH mamlakatlari orasida 4-o'ringa ko'tarilgan.


Mazkur indeks mamlakatning statistik salohiyati, erishilgan yutuqlari hamda milliy statistika tizimini rivojlantirish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar natijalarini aks ettiradi.

⁴ <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/58365-jahon-bankining-statistika-faoliyati-samaradorligi-indeksi>



Xususan, 2023-yil yakunlariga ko'ra O'zbekistonning "Statistika faoliyati samaradorligi indeksi"da 62-o'ringa ko'tarilishiga quyidagi omillar sabab bo'lgan:

- Milliy statistika tizimida sifatni boshqarishning ilg'or uslublari — GSBPM (Generic Statistical Business Process Model) va GSIM (Generic Statistical Information Model) tizimlarining joriy etilishi;
- BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) global indikatorlari asosida Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari indikatorlarini shakllantirish va ularni muntazam e'lon qilib borish;
- Milliy va xorijiy foydalanuvchilar uchun rasmiy statistik ma'lumotlarning yuqori darajadagi ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, jumladan, respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini xalqaro statistik to'plamlar va ma'lumotlar bazalarida muntazam yoritib boorish (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston Statistika faoliyati samaradorligi indeksidagi natijalari

Manba: "Ushbu ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika bosh boshqarmasining rasmiy sayti asosida tuzilgan."⁵

O'zbekistonning "Statistika faoliyati samaradorligi indeksi" bo'yicha ko'rsatkichlari yillar davomida barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilmoqda. 2016-yilda mamlakat 151-o'rinni egallab, 36,7 ball to'plagan bo'lsa, keyingi yillarda bosqichma-bosqich yuksalish kuzatildi. 2019-yilgacha o'sish sur'atlari nisbatan sekin kechgan bo'lsa-da, 2020-yilda O'zbekiston 124-o'rindan 80-o'ringa keskin ko'tarildi. Bu jarayon milliy statistika tizimida sifatni boshqarish mexanizmlarining joriy etilishi, xalqaro metodologiyalarni amaliyotga tatbiq etish va ma'lumotlar bazasining kengayishi bilan izohlanadi. Keyingi yillarda ham natijalar mustahkamlanib, 2023-yilga kelib O'zbekiston 62-o'ringa chiqdi va 80,3 ball to'plab, ilgari erishilgan natijalarni deyarli ikki baravar oshirdi.

Mazkur o'sish mamlakatda statistika sohasining shaffofligi, ochiqligi va xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash borasida olib borilgan islohotlar samarasi hisoblanadi. Shu bilan birga, tahlil shuni ko'rsatadiki, ayrim yillarda — masalan, 2021–2022-yillarda — reytingdagi o'rinning vaqtincha pasayishi kuzatilgan. Bu holat, ehtimol, ma'lumotlarning tezkor taqdim etilmagani yoki xalqaro metodologiyalarni to'liq joriy qilishdagi kechikishlar bilan bog'liq bo'lgan. Shunga qaramay, umumiy tendensiya ijobiy bo'lib, O'zbekiston MDH mamlakatlari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro iqtisodiy ko'rsatkichlar statistikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, bu ko'rsatkichlar nafaqat mamlakatlarning iqtisodiy o'sish sur'atlarini, balki ularning ijtimoiy barqarorligi va global raqobatbardoshligini ham baholashda muhim mezon sifatida qaraladi. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, turli mamlakatlar o'rtasida ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va taqdim etish usullarida sezilarli farqlar mavjud. Bu esa iqtisodiy taqqoslashlarda muayyan cheklovlarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda statistik bazaning to'liqligi, shaffofligi va muntazam yangilanishi masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston tajribasi shuni tasdiqlaydiki, milliy statistika tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, sifatni boshqarish mexanizmlarini joriy etish, barqaror rivojlanish indikatorlarini tizimli e'lon qilish va ochiqlikni oshirish

⁵ <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/58365-jahon-bankining-statistika-faoliyati-samaradorligi-indeksi>



yo'nalishidagi islohotlar mamlakatning xalqaro reytinglardagi o'rini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, norasmiy iqtisodiyot hajmini to'liq qamrab olish, ayrim ko'rsatkichlarning ishonchligini oshirish va xalqaro ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyani kuchaytirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Xalqaro iqtisodiy ko'rsatkichlar statistikasi zamonaviy global iqtisodiyotni tahlil qilishda hamda milliy iqtisodiy siyosatni shakllantirishda strategik ahamiyatga ega. Ushbu sohada mavjud muammolarni bartaraf etish, yangi metodologik yondashuvlarni joriy etish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali ko'rsatkichlarning aniqligi, ishonchligi va qamrovi yanada kengayadi. Natijada mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatini haqqoniy baholash va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish jarayoni sezilarli darajada samaraliroq bo'ladi.

Takliflar:

Metodologiyalarni uyg'unlashtirish: Jahon banki, XVJ, OECD va BMT kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llanilayotgan metodologiyalarni uyg'unlashtirish zarur. Bu yondashuv mamlakatlar o'rtasida natijalarni solishtirish imkonini kengaytiradi va ularning ishonchligini oshiradi.

Ochiqlikni kuchaytirish: Milliy statistika organlari ma'lumotlarni keng jamoatchilik uchun ochiq shaklda taqdim etishi, ularni xalqaro ma'lumotlar bazalari bilan uyg'unlashtirishi lozim.

Norasmiy iqtisodiyotni hisobga olish: Norasmiy iqtisodiy faoliyatni o'lchash mexanizmlarini takomillashtirish, soliq ma'lumotlari integratsiyasi, raqamli kuzatuv tizimlari va alternativ baholash usullarini keng joriy etish kerak.

Texnologik modernizatsiya: Katta ma'lumotlar (Big Data), sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish statistik jarayonlarni tezkor, aniq va ishonchli qiladi.

Mutaxassislar malakasini oshirish: Milliy statistika tizimida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning malakasini xalqaro standartlarga mos ravishda muntazam oshirish, yangi metodologiyalarni o'zlashtirish va islohotlarni samarali amalga oshirish zarur.

Global hamkorlikni kengaytirish: Rivojlanayotgan mamlakatlarni texnik yordam bilan qo'llab-quvvatlash, statistika infratuzilmasini rivojlantirish va tajriba almashish mexanizmlarini kuchaytirish global statistik tizimning uyg'unlashuviga xizmat qiladi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unlashuv: Milliy ko'rsatkichlarni BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) indikatorlari bilan uyg'unlashtirish, ularni muntazam kuzatish va xalqaro hisobotlarga kiritish O'zbekistonning global iqtisodiy obro'sini oshiradi.

Ushbu takliflarni izchil amalga oshirish xalqaro iqtisodiy statistikaning samaradorligini oshiradi, ko'rsatkichlarning ishonchligini ta'minlaydi hamda global iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asian Development Bank ADB . 2021. Key Indicators Database. Manila: ADB.
2. European Bank for Reconstruction and Development EBRD. 2021. Transition Report. London: EBRD.
3. Maddison, A. 2003. The World Economy: Historical Statistics. OECD.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika Bosh Boshqarmasi rasmiy sayti. <https://www.stat.uz>
5. Jahon bankining «Statistika faoliyati samaradorligi indeksi»da O'zbekiston 62-o'ringa ko'tarildi <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/go-mita-yangiliklar/58365-jahon-bankining-statistika-faoliyati-samaradorligi-indeksi-da-o-zbekiston-62-o-ringa-ko-tarildi>
6. OECD. 2021. OECD Statistics Database. Paris: OECD Publishing.
7. United Nations UN. 2021. Comtrade Database. New York: UN.
8. United Nations Conference on Trade and Development UNCTAD. 2022. World Investment Report. Geneva: UNCTAD.
9. World Bank. 2023. World Development Indicators. Washington, DC.
10. World Economic Forum WEF. 2022. Global Competitiveness Report. Geneva: WEF.
11. International Monetary Fund IMF. 2022. World Economic Outlook Database. Washington, DC.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

7-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>